

## XII.KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

(O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat

xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2025- yilning 1- iyul holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 43 817 taga etdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlar soni 26 149 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 59,7 % ni tashkil qildi.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Namangan shahri (32,3 %), Chust (8,1 %), Chortoq (6,4 %), Kosonsoy, Pop, Uychi va Uchqo'rg'on (6,3 % dan) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Ro'yxatga olingan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

(2025- yilning 1- iyul holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
<b>Viloyat jami</b>	<b>43 817</b>	<b>100,0</b>	<b>26 149</b>	<b>100,0</b>
Namangansh.	14 145	32,3	8 201	31,4
Mingbuloq	2 232	5,1	1 437	5,5
Kosonsoy	2 769	6,3	1 550	5,9
Namangan t.	2 641	6,0	1 518	5,8
Norin	2 293	5,2	1 382	5,3
Pop	2 766	6,3	1 971	7,5
To'raqo'rg'on	2 526	5,8	1 634	6,2
Uychi	2 754	6,3	1 534	5,9
Uchqo'rg'on	2 754	6,3	1 491	5,7
Chortoq	2 802	6,4	1 668	6,4
Chust	3 557	8,1	2 202	8,4
Yangiqo'rg'on	2 578	5,9	1 561	6,0

Ro'yxatdan o'tgan sub'yektlarning hududlar bo'yicha ulushi, % da  
(2025- yilning 1- iyul holatiga)



- |                |             |                 |                 |
|----------------|-------------|-----------------|-----------------|
| ■ Namangan sh. | ■ Mingbuloq | ■ Kosonsoy      | ■ Namangan t.   |
| ■ Norin        | ■ Pop       | ■ To'raqo'rg'on | ■ Uychi         |
| ■ Uchqo'rg'on  | ■ Chortoq   | ■ Chust         | ■ Yangiqo'rg'on |


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning (34,0 %), sanoat (19,3 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (8,2 %) hamda qurilish (6,3 %) sohalariga to'g'ri keladi.

**Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha**

(2025- yilning 1- iyul holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	Birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
<b>Jami</b>	<b>39 129</b>	<b>100,0</b>	<b>21 803</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3 566	9,1	1 634	7,5
sanoat	8 459	21,6	4 221	19,4
qurilish	2 728	7,0	1 333	6,1
savdo	14 871	38,0	8 874	40,7
tashish va saqlash	1 514	3,9	951	4,4
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 178	5,6	1 315	6,0
axborot va aloqa	616	1,6	338	1,5
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	872	2,2	656	3,0
boshqa turlari	4 325	11,0	2 481	11,4

**Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni**  
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2025- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




**Mas'uliyati cheklangan jamiyat**

Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb, bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis xujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdorlardagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamoat faoliyati bilan bo'lib zarar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining doirasida solidar javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek "mas'uliyati cheklangan" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak.

### Oilaviy korxonalar soni

(2025- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2025- yilning 1- iyul holatiga ko'ra 1 533 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 14 taga yoki 99,1 foizni tashkil etganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 903 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 93 taga yoki 90,7 foizni tashkil etganligini ko'rish mumkin.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 46 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 90 taga yoki 33,8 foizni tashkil etganligini ko'rish mumkin.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining xududlar kesimida soni

(2025- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




**Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni**  
(2025- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)


Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2025- yilning 1- iyul holatiga ko'ra 30 904 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 1 957 taga yoki 6,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 17 618 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 284 taga yoki 1,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 818 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 130 taga yoki 93,3 % ni tashkil qilganligini ko'rish mumkin.




**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni**  
(2025- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




2025- yilning 1- iyul holatiga ko'ra mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning asosiy qismi Namangan shahri 5 959 ta (jamidagi ulushi 33,8 %), Pop 1 284 ta (7,3 %), Chortoq 1 260 ta (7,2 %), Chust 1 159 ta (6,6 %), Uychi 1 088 ta (6,2 %), Yangiqo'rg'on 1 069 ta (6,1 %), Kosonsoy 1 067 ta (6,1 %), Namangan 978 ta (5,5 %), Norin 977 ta (5,5 %), Uchqo'rg'on 954 ta (5,4 %), To'raqo'rg'on 939 ta (5,3 % ni) xissasiga to'g'ri keladi.

Aksincha eng kam Mingbuloq 884 ta (5,0 %) tumani xissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi  
korxonalari jamiga nisbatan ulushi, foizda



Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonasi va tashkilotlari  
soni bo'yicha ma'lumotlar, birlikda




- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

- Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va xavoni konditsiyalash
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

**Ro'yxatga olingan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**  
(2025- yilning 1- iyul holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
<b>Jami</b>	<b>43 817</b>	<b>100,0</b>	<b>26 149</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3 592	8,2	1 660	6,4
sanoat	8 464	19,3	4 226	16,2
qurilish	2 744	6,3	1 348	5,2
savdo	14 876	34,0	8 876	33,9
tashish va saqlash	1 515	3,4	952	3,6
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 180	5,0	1 317	5,0
axborot va aloqa	650	1,5	370	1,4
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 096	2,5	874	3,3
boshqa turlari	8 700	19,8	6 526	25,0


### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da (2025- yilning 1- iyul holatiga)




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotgan sub'ektlarning ulushi 59,7 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 40,3 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan taqqoslanganda 3,0 foiz oshgan.

### Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonidan faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da

01.07.2024- yil



01.07.2025- yil




■ Faoliyatsizlar

■ Faoliyat ko'rsatayotganlar

2025- yilning 1- iyul holatiga 21 803 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3 035 ta, oilaviy korxonalar – 903 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 17 618 tani va 247 tani boshqa tijorat korxonalarini tashkil etadi.


Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar va xo'jalik yurituvchi  
sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha  
taqsimlanishi, birlikda



2025- yilning yanvar-iyun oylarida jami 2 192 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 97,4 foizni tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Namangan shahri (610 ta), Mingbuloq (186 ta), Kosonsoy (179 ta), Pop (175 ta), Chortoq (169 ta), Yangiqo'rg'on (148 ta), Chust (144 ta), Norin va Uchqo'rg'on (128 tadan) tumanlariga to'g'ri keladi. Eng kam esa, To'raqo'rg'on (111 ta), Uychi (108 ta) va Namangan (106 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.


### Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, birlikda (2025- yilning 1- iyul holatiga)




### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda (2025- yilning 1- iyul holatiga)




**Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish boʻyicha faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**  
(2025-yilning 1-iyul holatiga)



**Axborot va aloqa sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar toʻgʻrisida maʼlumot, birlikda**




### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (2025- yilning yanvar-iyun oylarida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi savdoda 38,9 %, sanoatda 14,8 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 11,6 %, qurilishda 3,9 % ni tashkil etadi.

### Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (2025- yilning yanvar-iyun oylarida)



2025- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy  
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi

43,5 %



Sanoat

8,7 %



Qishloq, o'rmon va  
baliqchilik  
xo'jaligi

17,4 %



Savdo

23,9 %



Yashash va  
ovqatlanish bo'yicha  
xizmatlar



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy  
xizmatlar

2,2 %



Boshqa turlar

2025- yilning 1- iyul holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni 21 648 tadan ortiqni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan 99,0 % tashkil qilgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy qismi, ya'ni 6 907 tasi (jami sub'ektlarning 31,9 %) Namangan shahriga, 1 844 tasi (8,5 %) Chust, 1 599 tasi (7,4 %) Pop, 1 382 tasi (6,4 %) Chortoq, 1 352 tasi (6,2 %) To'raqo'rg'on, 1 274 tasi (5,9 %) Namangan tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam faoliyat ko'rsatayotganlar esa 1 131 tasi (5,2 %) Norin, 1 179 tasi (5,5 %) Mingbuloq, 1 209 tasi (5,6 %) Uchqo'rg'on, 1 248 tasi (5,8 %) Yangiqo'rg'on tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining  
hududlar bo'yicha soni

	2024- yilning 1- iyul holatiga		2025- yilning 1- iyul holatiga	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
<b>Viloyat jami</b>	<b>21 877</b>	<b>100,0</b>	<b>21 648</b>	<b>100,0</b>
Namangan sh.	6 718	30,7	6 907	31,9
Mingbuloq	1 035	4,7	1 179	5,5
Kosonsoy	1 310	6,0	1 256	5,8
Namangan t.	1 400	6,4	1 274	5,9
Norin	1 141	5,2	1 131	5,2
Pop	1 620	7,4	1 599	7,4
To'raqo'rg'on	1 425	6,5	1 352	6,2
Uychi	1 261	5,8	1 267	5,8
Uchqo'rg'on	1 580	7,2	1 209	5,6
Chortoq	1 385	6,4	1 382	6,4
Chust	1 910	8,7	1 844	8,5
Yangiqo'rg'on	1 092	5,0	1 248	5,8

Faoliyat ko'rsatayotgan jami 21 648 ta kichik tadbirkorlik subyektlarining 8 848 tasi (40,9 %) - savdoda, 4 165 tasi (19,2 %) - sanoatda, 1 628 tasi (7,5 %) - qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 1 325 tasi (6,1 %) - qurilishda, 1 309 tasi (6,0 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 946 tasi (4,4 %) - tashish va saqlashda, 651 tasi (3,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 338 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasida shuningdek, 2 438 tasi (11,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**  
(2025- yilning 1- iyul holatiga)



2025- yil yanvar-iyun oylarida jami 2 007 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari yangi tashkil etilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 81,5 foizni tashkil etgan.

Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahri (585 ta), Mingbuloq (175 ta), Kosonsoy (158 ta), Pop (151 ta), Chortoq (144 ta), Norin (127 ta), Yangiqo'rg'on (124 ta), Chust (122 ta) va Uchqo'rg'on (119 ta) tumanlariga eng kam tashkil etilganlari esa, Namangan (96 ta), To'raqo'rg'on (99 ta) va Uychi (107 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

2025- yilning yanvar- iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik  
tadbirkorlik subyektlarining hududlar bo'yicha soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng ko'p tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda (853 ta), sanoatda (325 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (255 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (152 ta) hamda qurilishda (84 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (47 ta), tashish va saqlashda (50 ta), axborot va aloqada (55 ta) tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash asosida ularning ishlab chiqarish faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha ishlar yetarli darajada tashkil etilmaganligi sababli, faoliyat ko'rsatmayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining jami ro'yxatga olinganlarning umumiy soniga nisbatan ulushi yuqori bo'lmoqda.

Jumladan, 2025- yil 1- iyul holatiga Namangan viloyatida jami ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining umumiy sonida faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 44,4 % ni (17 284 ta) tashkil qilgan, ularning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 981 taga ko'paygan.


Hisobot davrida 895 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati tugatilgan bo'lib, ulardan 565 tasi (jami faoliyati tugatilganlarning 57,4 %) ixtiyoriy tugatilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da  
(2025- yil yanvar- iyun)



**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.** 2025- yilning 1- iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 245 tani tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 32 taga yoki 115,0 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 103 tasi qo'shma korxonalar, 142 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda**  
(2025- yilning 1- iyul holatiga)



**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda**  
(2025- yilning 1-iyul holatiga)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Namangan shahar 111 ta (45,3 %), Pop 19 ta (7,8 %), Chust va Yangiqo'rg'on 17 tadan (6,9 % dan) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida korxonalar Chortoq 5 ta (2,0 %), Uchqo'rg'on, Mingbuloq 6 tadan (2,5 % ni) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining hududlar bo'yicha soni va ulushi**  
(2025- yilning 1- iyul holatiga)

	<b>birlik</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi % da</b>
<b>Viloyat jami</b>	<b>245</b>	<b>100,0</b>
Namangan sh.	111	45,3
Mingbuloq	6	2,5
Kosonsoy	16	6,5
Namangan t.	9	3,7
Norin	8	3,3
Pop	19	7,8
To'raqo'rg'on	15	6,1
Uychi	16	6,5
Uchqo'rg'on	6	2,5
Chortoq	5	2,0
Chust	17	6,9
Yangiqo'rg'on	17	6,9


Faoliyat ko'rsatayotgan 245 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 96 tasi (39,2 %) sanoat, 59 ta (24,1 %) savdo, 21 ta (8,5 %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 12 tasi (4,9 %) qurilish, 8 tasi (3,3 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 8 tasi (3,3 %) tashish va saqlashda, 6 tasi (2,4 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda hamda 27 tasi (11,0 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa, tashish va saqlash hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi**  
(2025- yilning 1- iyul holatiga)

	<b>birlik</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>
<b>Jami</b>	<b>245</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	21	8,5
sanoat	96	39,2
qurilish	12	4,9
savdo	59	24,1
tashish va saqlash	8	3,3
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	2,4
axborot va aloqa	8	3,3
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	8	3,3
boshqa turlari	27	11,0

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining ulushi, % da**  
(2025- yilning 1- iyul holatiga)



2025- yilning yanvar-iyun oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 36 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11 taga yoki 44,0 foizga ko'paygan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi – 15 ta, Turkiya – 7 ta, Rossiya Federatsiyasi, Janubiy Koreya va Niderlandiya qirolligi – 2 tadan, Hindiston, Eron va Pokiston Islom Respublikasi, Qirg'iziston, Qozog'iston, Ozarbayjon, Germaniya, Amerika qo'shma shtatlari – 1 tadan yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

Viloyatdagi 36 ta yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Namangan shahar (21 ta), Pop, Uchqo'rg'on (3 tadan), Chust va Yangiqo'rg'on (2 tadan), Mingbuloq, Kosonsoy, Namangan, To'raqo'rg'on, Uychi (1 tadan) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Norin, Chortoq tumanlarida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilmagan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar  
hududlar kesimidagi soni va ulushi**  
(2025- yil yanvar-iyun)


	<b>birlik</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>
<b>Viloyat jami</b>	<b>36</b>	<b>100,0</b>
Namangan sh.	21	58,4
Mingbuloq	1	2,8
Kosonsoy	1	2,8
Namangan t.	1	2,8
Norin	-	-
Pop	3	8,3
To'raqo'rg'on	1	2,8
Uychi	1	2,8
Uchqo'rg'on	3	8,3
Chortoq	-	-
Chust	2	5,5
Yangiqo'rg'on	2	5,5

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 15 ta, savdoda 11 ta, qurilish 3 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, yashash va ovqatlanish, axborot va aloqa sohalarida 1 tadan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**  
(2025- yil yanvar- iyun)



**2025- yil yanvar- iyun oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



**Oilaviy korxonalar.** Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni, 2025- yilning 1- iyul holatiga 1 533 tani tashkil etib, ulardan 903 tasi yoki 58,9 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan davlat ro'yxatidan o'tganlarning umumiy soniga nisbatan o'rtacha 5,5 % ga kamayganligini ta'kidlash mumkin.